


# O'qish savodxonligi


4

II qism



I bo'lim.

**Do'st do'stga oyna**





Berilgan rasmlarning o'xshash va farqii tomonlarini toping.




O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist **Ashurali Jo'rayev** 1956-yil 8-avgustda Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi Jaloyir qishlog'iда tug'ilgan. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutini tamomlagan. Uning "Toshbaqalar poygasi", "Yurak bo'ronlari", "O'q uzgan kim?" kabi kitoblari nashr etilgan.



## Kichik ustoz (Hikoya)

Qishki ta'tilda Anvar bilan Akbarlarnikiga olis Jaloyir qishlog'idan Ozodbek mehmon bo'lib keldi. U o'zi o'qiyotgan məktəbda shaxmat to'garagi borligini, to'garakda faol qatnashib, allaqachon sindfoshlari orasida champion bo'lganligini zavq bilan gapirib berdi. Hatto məktəb direktori uni "Faxriy yorliq" bilan taqdirlabdi.



— Sizlarga ham shaxmat o'ynashni o'rgataymi? — so'radi u Anvar bilan Akbarning ham shaxmatga qiziqib qolganlarini ko'rib. Bu taklif aka-ukalarga ma'qul bo'ldi. Uylarida bobosiga sovg'a qilingan, lekin hali o'ynalmagan yap-yangi shaxmat bor edi. Ozodbek tengdosh do'stlari — Anvar bilan Akbarga shaxmat o'yinini astoydil o'rgatishga kirishdi. U avval shaxmat donalarining qanday nomlanishini birma-bir ko'rsatib, so'ng donalarni shaxmat taxtasidagi kataklarga qay tartibda qo'yishni o'rgatdi. Yurish qoidalarini esa xuddi katta ustozlardek o'ynab ko'rsatdi. Ikki-uch kunda Anvar bilan Akbar kichik ustozdan shaxmat o'ynash qoidalarini ancha o'rganib oldilar. Biroq ularning o'yinlariga singillari xalaqit bera boshladи. Feruza akalari o'ynayotgan shaxmat donalarini taxtadan shartta olib, to'g'ri kelgan katakka qo'yardi. Agar uning qo'lidan shaxmat donasini tortib olsangiz, "Men ham o'ynayman", — deb yig'laydi.

- Feruza, tegma, – deb katta akasi urishgan bo'ladi.
- Sen hali o'yinni bilmaysan-ku, Feruza, – deb ikkinchi akasi tanbeh beradi.
- Yo'q, o'yinni men ham bilaman, – deydi qaysarlik bilan Feruza.

– Akalar o'rgansin, keyin senga ham o'rgataman, – dedi kichik ustoz ularni murosaga keltirmoqchi bo'lib.

Feruza zing'llab borib bobosiga yoki dadasiga ulardan shikoyat qiladi.

– Hozir akalar o'ynab bo'lsin, keyin ikkovimiz birga o'ynaymiz. Akalarga bermaymiz, – deb bobosi uni ovutadi. Keyin akalar o'tasidagi doimiy bahs boshlanadi.

– Sen noto'g'ri yurding, – deydi Anvar qizishib.

– O'zing ham noto'g'ri yurding, – bo'sh kelmaydi Akbar.

Bahs jiddiyashib, janjalga yetay deganda Ozodbek aralashib, ularni yana amallab tinchlanadiradi. Shunday qilib, aka-ukalar o'tasidagi shaxmat o'yinlari qizg'in tus oladi. Goh aka, goh uka bir-birini mot qilib zavqlanadilar. Buni ko'rib, kichik ustoz quvonadi. Bobosi xursand bo'lib, yosh shaxmatchilarni mazali shirinliklar bilan siylaydi. O'yin qizigandan qiziydi...

Ta'til tugashi bilan Ozodbek qishloqqa qaytib ketdi. Farzandlarining shaxmatga mehr qo'yib, astoydil qiziqib qolganlarini sezgan ota-onasi ularni maxsus shaxmat to'garagiga berishdi.

– Shaxmat o'ynashni bilasizlarmi? – deb so'radi yangi ustoz.

– Ha, bilamiz, – deyishdi aka-ukalar.

Yangi ustoz ularga shaxmat o'ynatib ko'rdi. O'yinlaridan ko'ngli to'ldi, shekilli:

– Sizlarga shaxmat o'ynashni kim o'rgatgan? – deb so'radi.

– Ozodbek, – dedi Anvar bilan Akbar baravariga...

Endi aka-ukalar shaxmat mashg'ulotlarini kanda qilmay qatnashadi. Ularning intilishlaridan ustoz xursand. Eng muhim, akalar uyda singillariga shaxmat o'ynashni o'rgatyapti. Bundan Feruzaning quvonchi cheksiz. Uning niyati, o'yinda akalarini mot qilish. Anvar bilan Akbar kelajakda Rustam Qosimjonovdek mashhur shaxmatchi bo'lishni astoydil niyat qilganlar. Ular orzulari ushalib, mashhur shaxmatchi bo'lganlarida ham kichik ustozlari Ozodbekni unutmasliklari aniq. Axir, ustozni unutib bo'ladimi?!





1. Hikoya qahramonlari kimlar?
2. Nima sababdan Ozodbek aka-ukalarning uyiga mehmonga bordi?
3. Ayting-chi, Anvar singlisining qiziqishlariga hurmat bilan qaradimi?
4. Anvar va Akbarning qaysi xislatlari sizga yoqdi?
5. Muvafaqqiyatga erishish uchun siz o'zingizda qanday xislatlar bor deb o'ylaysiz?



**O'zbekistonda 1972-yilda Dalvarzintepada o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan, 1977-yilda esa Afrosiyob (Samarqand)da o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 7 ta shaxmat donasi topilgan. Shundan kelib chiqadiki, mamlakatimizda shaxmat sportining tarixi juda chuqur ildizlarga ega. Mamlakatimiz o'zining eng qadimgi shaxmat maktabi bilan faxrlanishi mumkin. 1984-yilda ilk marotaba Georgiy A'zamov O'zbekistonning birinchi xalqaro grossmeysteri bo'ldi. 1998-yilda Ibrohim Hamroqulov o'smirlar o'rtaсидаги Jahon championati g'olibligini qo'lga kiritdi. Rustam Qosimjonov 1998-yilda birinchi Osiyo championi va 2004-yilda o'n yettinchi jahon championi bo'ldi. 2022-yilda Butunjahon shaxmat olimpiadasining final bahsida O'zbekiston jamoasi Niderlandiya terma jamoasini mag'lub etib, turnir g'olib bo'ldi.**

# Mundarija

## I bo'lim. Do'st do'stga oyna

<b>1-mavzu.</b> Kichik ustoz .....	5
<b>2-mavzu.</b> Do'st do'stga oyna .....	11
<b>3-mavzu.</b> Abu Ali ibn Sino .....	16
<b>4-mavzu.</b> Do'stlikda gap ko'p ekan .....	22
<b>5-mavzu.</b> Tovuq bilan Tulki .....	28
<b>6-mavzu.</b> Bo'lim yuzasidan takrorlash .....	34

## II bo'lim. Davlatimiz ramzlari – Vatanimiz timsoli

<b>7-mavzu.</b> Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni .....	39
<b>8-mavzu.</b> Vatan – jon fidolikdir .....	42
<b>9-mavzu.</b> O'zbekiston madhiyasi .....	45
<b>10-mavzu.</b> Bayroqlar nimani anglatadi? .....	48
<b>11-mavzu.</b> Bo'lim yuzasidan takrorlash .....	52

## III bo'lim. Rosa maza qish, qorlari – kumush

<b>12-mavzu.</b> Chang'i uchaman .....	57
<b>13-mavzu.</b> Bir hovli qush 1-qism .....	61
<b>14-mavzu.</b> Bir hovli qush 2-qism .....	66
<b>15-mavzu.</b> Qishki ta'til .....	70
<b>16-mavzu.</b> Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	73

***veb-saytimiz: Zokirjon.com***  
***Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun  
kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.***

## ***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeraga  
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram  
orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445  
izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.  
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob  
beriladi***

***4-sinf o‘qish savodxonligi II qism kitobini  
to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.***

***Telegram kanalimiz:***

***@Maktablar\_uchun\_hujjatlar***



### **DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik  
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin  
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.  
Telegram orqali kanal va gruppalarga  
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**